
"Tashabbusli byudjet" loyihasining 17 ta g'oliblari mahallalarning infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan

Mahallalarni obod qilish, ularga infratuzilmani olib borish yo'lida "Tashabbusli byudjet" loyihasi asosiy o'rin tutmoqda. Buni joriy yilning ikkinchi bosqichi orqali Farg'ona shahri mahallalari bo'yicha kelib tushgan takliflar hamda g'oliblar orqali tahlil qilishimiz mumkin.

Farg'ona shahridan 23 ta taklif g'oliblikni qo'lga kiritgan bo'lsa, ularning 17 tasi mahallalarning infratuzilmasini yaxshilash bo'yichadir. Barcha taklif bo'yicha 13,5 mlrd. so'm mablag' ajratilishi belgilangan bo'lsa, 17 ta g'olib bo'lgan loyihalar uchun 10 mlrd. so'mga yaqin mablag'lar sarf etiladi.

Ayniqsa, mazkur jarayonlarda "Beruniy" va "Tabassum" mahalla fuqarolar yig'inlarining aholisi faol ishtirok etishdi. Jumladan, "Beruniy" mahallasidan 6, "Tabassum" mahallasidan esa 5 ta bildirilgan takliflar g'olib bo'lib, 6 mlrd. so'mdan ortiq mablag'lar sarf etilishi belgilandi.

Bugun shahar hokimi Vosiljon Nazarov, sektorlar hamda masalaga dahldor tashkilot va korxonalar rahbarlari mazkur mahallalarda bo'lishib, aholi vakillari bilan qurilish va ta'mirlash ishlarini boshlash bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartib bo'yicha jarayonlar davom etayotganligi haqida suhbatlashishdi. Fuqarolar tomonidan bildirilgan takliflar o'rganib chiqildi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2022-10-12 22:52:19